ULUSLARARASI ÇAĞDAŞ TÜRK LEHÇELERİ VE EDEBİYATLARININ GÜNCEL MESELELERİ BİLGİ ŞÖLENİ-2

"MAHMUTHOCA BEHBÛDÎ VE TÜRKİSTAN CEDİTÇİLİĞİ"

(20-21 EKIM 2025)

- BİLDİRİ KİTABI-

Özbek Fikir Adamı ve Yazarı
MAHMUTHOCA BEHBÛDÎ'NİN
DOĞUMUNUN 150. YILI ANISINA



TÜRKSOY
ULUSLARARASI TÜRK KÜLTÜRÜ TEŞKİLATI
INTERNATIONAL ORGANIZATION OF TURKIC CULTURE

ULUSLARARASI ÇAĞDAŞ TÜRK LEHÇELERİ VE EDEBİYATLARININ GÜNCEL MESELELERİ BİLGİ ŞÖLENİ-2

"MAHMUTHOCA BEHBÛDÎ VE TÜRKİSTAN CEDİTÇİLİĞİ"

(20-21 Ekim 2025)

-BİLDİRİ KİTABI-

Özbek Fikir Adamı ve Yazarı
MAHMUTHOCA BEHBÛDÎ'NİN
DOĞUMUNUN 150. YILI ANISINA

Editörler
Veli Savaş YELOK
Zaynabidin ABDIRASHIDOV
Tuğba SARIKAYA AKSOY
Sümeyra HARMANDA

Editörler
Veli Savaş YELOK
Zaynabidin ABDIRASHIDOV
Tuğba SARIKAYA AKSOY
Sümeyra HARMANDA

Yayına Hazırlayan
Shavkat ORTIQOV

ISBN: 978-625-92677-5-3

Bu eserin tüm hakları saklıdır. Yazılar ve görsel malzemeler yayımcıdan yazılı izin alınmadan tümüyle ya da kısmen yayımlanamaz. Elektronik, mekanik, fotokopi, kayıt vs. araç ve ortamlarda çoğaltılamaz
ve iletilemez.

Uluslararası Türk Kültürü Teşkilatı (TÜRKSOY)
Ferit Recai Ertuğrul Caddesi No: 8
06450 OR-AN - Çankaya - Ankara / Türkiye
+90 (312) 491 01 00 (pbx)

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING IDIL-URAL TATAR TARAQQIYPARVARLARI BILAN ALOQALARI

Nodira Egamqulova*

Annotatsiya. XIX. asr oxiri XX. asr boshlari turkiy dunyoda kechgan milliy uyg‘onish harakatlari qardosh xalqlar orasidagi aloqalarni yana-da yaqinlashtirdi. Siyosiy-ijtimoiy, madaniy, diniy hayotda kuzatilayotgan islohotlarning Turkistonga kirib kelishida turk, tatar, ozar taraqqiyparvarlarining ta’siri katta bo‘ldi. Sayohatlar, matbuot, turli syezdlar, jamiyatlar turkiy xalqlarning milliy va siyosiy birlik yo‘lidagi dasturlarini, g‘oyalarini o‘rtoqlashishiga yo‘l ochdi. Tataristondagi islohotlar birinchi galda diniy reformatsiya, islom ma’rifatchiligi g‘oyalariga qaratildi. Harakatning asosiy liderlari ham din olimlari edi. Aynan Behbudiyning Muso Begiyev hamda Rizouddin Faxriddin haqidagi maqolalari ham islom olamidagi muhtasham asarlar muallifi Abul Alo al Maarriy va “Al luzumiyot” atrofida kechgan. Behbudiy o‘zining muftiy maslakdoshlarining har bir ishini kuzatib, tahlil qilib, e’tirof etib borgan.

Ushbu maqolada asosan Muso Begiyev, Rizouddin Faxriddin, Ibrohim Abdurashidov kabi tatar islohotchilari va Behbudiyning siyosiy, ma’rifiy va muharrirlik faoliyati o‘rtasidagi ta’sir va aloqalar yoritilgan. Behbudiyning “Sho‘ro” jurnalida e’lon qilingan maqolalari, jumladan, “Turkiston idorasi” nomli maqolasi tahlil qilingan. Behbudiyning noshirlik faoliyatida alohida o‘rin tutuvchi “Oyina” jurnali va uning “Mir’ot” jurnali bilan o‘xshash jihatlarga qisman to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, Behbudiy va tatar ziyolilarining davr, adabiyot, til va imlo, milliy birlik masalasidagi yakdil, shu bilan birga, farqli o‘y-qarashlariga ham munosabat bildirib o‘tilgan. Mazkur masalalarni yoritishda Behbudiyning “Ulfat”, “Vaqt”, “Sho‘ro” nashrlarida e’lon qilingan maqolalari tanlab olindi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Qozon, jadidchilik, milliy birlik, adabiyot

Kirish

Turkiston jadidlari hamisha turk, tatar, ozarbayjonlik ma’rifatparvarlar bilan doimiy aloqada bo‘lgani bois o‘zaro adabiy aloqalar ham shunga mos rivojlanib bordi. Turkistonlik adiblar ulardagi maorif, matbuot, adabiyot sohasidagi o‘zgarishlarni kuzatishgan, o‘rganishgan va Turkistonda ham tatbiq etish niyatida bo‘lishgan. 1905-yil voqealari, xususan, Turkistonda matbuot ishlarining yo‘lga qo‘yilishi bilan turk, tatar, ozarbayjon, boshqird mutafakkirlari bilan bo‘lgan aloqalar yanada mustahkamlandi. Jadidlarning mana shunday adabiy-madaniy aloqalari, asosan, ikki xil yo‘lda rivoj topgan. Birinchisi, ko‘plab madaniyat, san’at, ta’lim xodimlarining, ijodkorlarning bir-birlari bilan bevosita aloqada bo‘lganliklari, sayohatlar davomidagi tanishuvlar, Turkiston o‘lkasida muqim yoki uzoq vaqt yashab, hamkorlikda ijod qilish yo‘li bo‘lgan. Ikkinchisi, matbuot sahifalari orqali tanishuv, tanituv, ta’sirlanuv yo‘lidir. Va nisbatan bu ikkinchi yo‘l ko‘proq ta’sirga ega bo‘lgan. Turkiston matbuoti nashrlarida uchrovchi iqtiboslar o‘zbek, turk, tatar, ozarbayjon, eron, arab uyg‘onish harakati vakillarining bir-birlari bilan matbuot orqali doimiy munosabatda bo‘lganligining yana bir dalili bo‘la oladi.Vaqtli matbuotimizda uchrovchi “Sayyoh”, “Bir musofir”, “Samarqandiy”, “Buxoroli”, “A.F”, “Qardosh”, “Muxbir” (Qosimov, 2022, s. 52) kabi imzolar aynan Turkistonda faoliyat olib borgan tatar, turk muxbirlarga tegishli edi. Shu bilan bir qatorda turkistonlik jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhammedov, Cho‘lpon, Mo‘minjon Muhammadjonov, Bahrombek Davlatshoyevlar “Tarjimon”, “Sho‘ro”, “Vaqt”, “Ulfat” kabi tashqi davriy nashrlarda faol ishtirok etishdi. Turkistonda ham “Tarjimon”, “Mulla Nasriddin”, “Iqbol”, “Turk yurdu”, “Sho‘ro” mushtariylari ko‘paydi. Jumladan, Orenburgda nashr etilgan “Sho‘ro” (1908-1918) jurnalining sahifalari ham turkistonlik va tatar ziyolilarining fikr almashish va aloqa maydoni bo‘lgan edi. Behbudiy, Cho‘lpon, So‘fizoda, Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhamedov, Sadriddin Ayniy, Lutfullo Olimiy, Ajziy, Mo‘minjon Muhammadjonov, Rojiy, Xolmuhammad Oxundiy kabi

*Dotsent, PhD. Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi, ORCID:0009-0002-9647-4085, nodiraegamkulova1@gmail.com, Özbekistan.

taraqqiyparvarlarning ushbu jurnaldagi muntazam ishtiroki (Qosimov, 2022, s. 56) ham bunga dalil bo‘la oladi. Umuman olganda, ushbu gazeta-jurnallar Turkiston matbuoti bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishdi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdi. B. Qosimov so‘zlari bilan aytganda, Turkiston matbuot vositasida qardosh, tildosh, dindosh turk olamiga chiqdi (Qosimov, 2022, s. 64). Matbuot bilan bir qatorda adabiy aloqa va ta’sirlar ham shakllanib bordi. O‘z navbatida, Turkiston jadidlarining karvonboshisi Behbudiy ham ushbu jarayonlarning markazida bo‘lgan. Hoji Mu’in bu haqda: “Behbudiy afandi Kafkaz, Tatariston va Turkistonda chiqqan matbuotda doim adabiy, ilmiy, ijtimoiy va siyosiy maqolalar yozib turar edi”, deya ushbu nashrlar safida “Tarjimon”, “Vaqt”, “Sho‘ro”, “Tirik so‘z”, “Ulfat”, “Irshod”, “Toza hayot”ni keltiradi (Ahmedov, 2018.II:256). Turkistonlik hammaslaklari Behbudiyning millat oldidagi xizmatlarini tatarlar oydinlashuvidagi Shahobiddin Marjoniy va Qayyum Nosiriy xizmatlariga qiyoslashgan. Laziz Azizzoda so‘zlari bilan aytganda, “Behbudiyning xizmati fransuzlarning Jan Jaq Russo, ruslarning Lomonosov, Chernishevskiy va Pisarevlari, Kafkaz turklarining Fathali va Najafbeklari, tatarlarning Marjoniy va Nosiriysi ila birdur” (Ahmedov, 2018 II, s. 259).

Behbudiy 1896-yildan boshlab Tatariston, Qrim, Turkiya, Arabiston, Hindiston kabi mamlakatlarda nashr etilgan gazeta va jurnallarni o‘qishga kirishdi.

1906-yil dekabrdan boshlab “Tarjimon”, “Ulfat”, “Vaqt” gazetalarida o‘zi ham maqolalari bilan ishtirok eta boshlaydi. 1908-yil “Sho‘ro”da e’lon qilingan ilk maqolasi “Turkiston idorasi” bilan ushbu jurnaldagi chiqishlarini boshlaydi.

Uning Qozon va Orenburgga sayohati 1907-yilga to‘g‘ri keladi.

1908-yilda Turkistonga kelgan Ismoilbek Gasprinskiy va Abdurashid Ibrohimov bilan uchrashib, suhbatlashadi. Shu yili Rossiya Davlat Dumasi a’zosi Sadri Maqsudiy bilan Samarqandda uchrashadi. Tatar oydinlari faoliyati bilan yaqindan tanishadi. Turkiston musulmonlariga tatar birodarlarining ishlaridan o‘rnak olishga chaqiradi. Uning o‘zi o‘sha yili “Shuhrat” gazetasida e’lon qilgan bir maqolasida: “…Kafkaz va Tatariston musulmonlaridek har shaharg‘a “Taraqqiyuni islom” va “Nashri maorif” jamiyatlari barpo qilib, aqcha jamlab, ushbu ishlarni boshlamoq kerak”ligini yozadi (Behbudiy, 1908e, s. 9).

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Rizouddin Faxriddin (1859-1936)

Bu ikki diniy ulamo va ma’rifatparvar ziyolining aloqalari “Sho‘ro” jurnali sahifalarida mustahkamlanib borgan. Mundarijasining xilma-xilligi, keng qamrovligi bilan ajralib turuvchi “adabiy, siyosiy, fanniy” ushbu jurnal 1908-yil yanvaridan 1917-yil dekabriga qadar Orenburgda mashhur ulamo va adib Rizouddin Faxriddin muharrirligi, tatar oltin sanoatchilari Shokir va Zokir Romiyevlar homiyligida nashr qilingan. Jurnalning jami bo‘lib 240 soni dunyo yuzini ko‘rgan. Jurnal Turkiston, Qozoqiston, Kavkaz, Qrim va Turkiyada o‘qilgan. Behbudiy ham ushbu jurnal tashkil topgan dastlabki yildanoq maqola yuborib, doimiy kuzatib borgan. Behbudiy haqida e’lon qilingan risolalarda “1910-1912-yillarda “Sho‘ro” jurnalida asarlari chop etil”ganligi aytiladi. Ammo uning 1908-yil “Sho‘ro”da e’lon qilingan “Turkiston idorasi” maqolasi Behbudiy ushbu jurnal tashkil topgan birinchi yildanoq maqola yuborib, aloqalar o‘rnatganligini ko‘rsatadi.

Ushbu muhim maqolada Behbudiyning Turkistonda “Idorayi ruhoniya va islomiya” tashkil etish borasidagi harakatlari aks ettirilgan. “Graf Palenning taftishi shariat ahkomlarining yevropalik o‘quvchi talabiga mos shaklga keltirish masalasidagi xatti-harakatlar” (Ahmedov, 2018 I, s. 76) Behbudiy uzoq yillar reja qilib o‘ylab yurgan Turkiston idorasiga doir fikrlarini bir “Loyiha” doirasida musulmonlar fraksiyasiga topshirishga undadi. 1907-yil Behbudiy Davlat Dumasiga o‘z loyihasini yubordi. Afsuski bu loyiha Davlat Dumasi musulmon fraksiyasida ko‘rilmay qolib ketdi. Shunga qaramay, ushbu loyiha mazmuni aks etgan maqolalarini “Turkiston viloyatining gazaeti”da to‘rt marotaba nashr qildi (Ahmedov, 2024, s. 111). “Sho‘ro”da bosilgan

“Turkiston idorasi” ham Behbudiyning ushbu masala bo‘yicha turli nashrlarda e’lon qilgan chiqishlaridan biri edi. Behbudiy ushbu maqolani “20nchi no‘mirli “Sho‘ro” da Turkiston idorayi ruhoniyasi to‘g‘rusinda bir savol”ga javob tarzida yozgan. Maqolada “Umum Turkiston uchun bir idorayi islomiya tashkil topub, sho‘balari har viloyatda ochilmoq to‘g‘risinda loyiha tuzub 2 nchi 3inchi Dumada Islom fraqsiyasi” hamda “Turkiston mufattishi senato‘r g‘raf Palen janoblarina ham muxtasar bir loyiha” taqdim etganligini qayd etadi. Va shu o‘rinda Behbudiy yana bir loyihasi haqida so‘z ochadi: “Turkistonda o‘lan rasmiy va g‘ayri rasmiy islomiy va rusiy maktab va madrasalar hamda o‘rta hukumat maktablarinda ulumi islomiyya va diniy madrasalardagi ulumi oliya va arabiya ta’lim va tadrislari haqinda, madrasalarning irtiqosi bobinda muxtasar bir loyiha tuzub muhtaram mustashriq Korochkin vositasila tobshirdim. Tanqid va taftish o‘linsun uchun ushbu loyiha suratini “Sho‘ro”da nashr etdirsam kerak”. Bundan ko‘rinadiki, Behbudiy Turkistondagi maktab va madrasa ta’limiga doir loyihasini ham Rizouddin Faxriddin tahririyatida e’lon qilishni reja qilgan. Behbudiyning yuqoridagi maqolasidan tashqari, Peterburg masjidi, Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”si va Muso Begiyev “Al luzumiyot” tarjimasi (“Muhtaram Muso afandi sharafina”), Abdurahmon Jomiyning “Tuhfatul ahror” asari haqida (“Eski fikrlardan”), sart so‘zi taftishiga oid maqolalari e’lon qilingan bo‘lib, ushbu jurnal va uning muharriri bilan yaqin maslakdoshlik aloqalari haqida tasavvur beradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Muso Jorulloh Begiyev (1875-1949)

Behbudiy va Muso Begiyevning aloqalari “Ulfat” gazetasi orqali boshlangan. Ularning ilk ko‘rishuvi Behbudiyning 1907-yil dekabr oyidagi Qozon sayohatiga to‘g‘ri keladi(Ahmedov, 2024, s. 96). Bu uchrashuv to‘g‘risida Behbudiy shunday yozadi: “Ushbu sana Rusiyag‘a sayohatim asnosig‘a Qozonda Muso afandi ila kitob va qalamdan boshqa nimarsasi yo‘q hujrayi zaminasig‘a o‘n besh daqiqacha bir qisqa zamon suhbat qilib edim va takrori Allohdan marjudur” (Behbudiy, 1908d, s. 15). Peterburg masjidining imom-xatibi bo‘lgan Muso Jorullohning “Ulfat”, “Vaqt”, “Sho‘ro” va boshqa nashrlarda bosilgan qator maqolalari, “Islom asoslari”, “Uzun kunlarda ro‘za”, “Rahmati ilohiya”, “Islohot” kabi asarlari adabiy tilining jonliligi sababli ko‘pchilik tomonidan sevib o‘qilgan (Ahmedov, 2024, s. 96). Behbudiy ta’rifiga ko‘ra, Muso Jorulloh “olami islomni nihol umidlarini bir kamolindandur. Arabiy, forsiy, turkiy va rusiy tillari ilan taqrir va tahrirg‘a muqtadir mutadayyin kishidur. Tatariston, Buxoro, Samarqandda tahsil olib, Arabiston, Hijoz, Misr, Hindistonda takomiliga yetkazgan” (Behbudiy, 1908d, s. 15).

Rizouddin Faxriddin, Muso Begiyev va Behbudiyni tutashirgan nuqtalardan biri Abul Alo al-Maarriyning “Al luzumiyot” asari bo‘ldi. Behbudiy Rizouddin Faxriddinning “Abul Alo al-Maarriy” asari va Muso Begining tarjimasi haqida bir nechta maqolalar e’lon qildi. Jumladan, Muso Begiyev haqida e’lon qilgan “Al luzumiyot kitobi” hamda “Muhtaram Muso afandi sharafina” maqolalarining asosiy mavzusi ham aynan “Al luzumiyot” devoni edi.

XX asr boshlari tatar adabiyotiga arab adabiyotining ta’siri masalasini tadqiq qilgan Lazzat Xaydarovga ko‘ra, o‘rta asr arab shoiri Abul Alo al-Ma’arriyning ijodi tatar adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan (Xaydarov, 2024, s. 23-24). Xususan, uning ijodi Rizouddin Faxriddin, Muso Begiyev, G‘afuriy, Validiy, Dumaviy kabi tatar adabiyotshunoslari va shoirlari uchun tadqiqot va ijodiy ilhom manbayi bo‘lgan. Matbuotda Ma’arriy ijodi va unga ergashish atrofida qizg‘in bahs-munozaralar kechganligi ham uning ta’sir doirasini ko‘rsatadi. Muso Begiyev bilan bir paytda Dumaviy ham “Luzumiyot”dan tarjimalar qilgan, sharhlar yozgan.

“Al luzumiyot” 13 mingga yaqin baytni o‘z ichiga olgan asar bo‘lib, Muso Begiyev uning bir qismini tarjima qilgan va sharhlar yozgan. Behbudiy Muso Jorullohning bu ishini yuksak baholaydi: “Muso afandining bu 208 sahifalik “Al luzumiyot” unvonindagi kitobi biljumla mavjudotni ko‘rsataturgon telesko‘p kabi, yo‘q, yo‘q, telesko‘p har bir nimarsani zohirini

ko‘rsatur. Bu esa daqoyiq din, hikmatdan bahs - bir haqiqatnamodur”. Behbudiy “yarmi ruscha va yarmi sahroyi turkiycha bir til” bo‘lgan tatar tilida bu kabi “ma’no va moddatan nafis” va muhim asarning tarjima va sharh qilinishi “har bir buyuk tatar olimini-da ishi emas”ligini va shimol turklari “Muso afandini darajayi ma’lumoti va kamoli” bilan faxr etishga haqli ekanliklarini yozadi. Behbudiy ushbu maqolada keltirgan fikrlarini oradan besh yil o‘tib “Sho‘ro” jurnalida e’lon qilingan maqolasida yana bir eslab o‘tadi. Garchi “Sho‘ro”dagi maqola “Muhtaram Muso afandi sharafina” deb nomlangan bo‘lsa-da, unda Jaloliddin Rumiyning “Masnaviysi”dan o‘rin olgan “Odamning yaratilishi”ga doir baytlari sharhlangan. Behbudiy faqatgina maqolaning bir o‘rnida Muso Jorulloh va “Al Luzumiyot”dan qilgan tarjimasi haqida keltirib o‘tgan: “Ganjinayi ulum o‘lan Muso afandi haqinda “Al Luzumiyot”g‘a yozmish sharhlari munosabati ila bundan besh sana muqaddam Toshkand jaridalarina[1] yozmishdim: “Ki tatar (Rusiya turklari) olaminda bizim “Masnaviy”, Bedil, Sa’diy, “Gulshani roz” va amsoli kitoblar yo‘q edi, onlar g‘oliban fiqhdan boshqa ulumdan oz xabarlidirlar. Ammo Muso afandi g‘ayratila oliy va sof berguchi birinchi kitob Tatariston ufqini tanvir etdi” (Behbudiy, 1912, s. 11).

Maqolada qiziq bir tahlil bor. Behbudiy “Masnaviy”da “Odamning xilqati”ga oid baytlarini sharhlar ekan, o‘sha kezlarda Ovrupoda katta ilmiy topilma sifatida qaralayotgan Darvin nazariyasiga to‘xtalib o‘tadi. Behbudiy aytadiki, “Ulumi tabiiya mutaxassisi va ovrupocha darvinizm maslakining muassisi o‘lan anglitarali Darvin nazariyoti, ya’ni – “inson hayvonliq martabasidan odamlik martabasina kechdi”, demish fikri fununi jadida oshnolarig‘a ma’lumdur… Darvindan 628 sana muqaddam vafot bo‘lmish Mavlono Jaloloddin Rumiy hazratlarining “Masnaviyi sharif”inda bu nazariya sarohat uzarinda tafsil edilmishdir”. Va yana qo‘shimcha qilib, Bedil “Kulliyot”ida ham uchrashini yozadi. Bu bilan Behbudiy Darvinning evolutsion nazariyasini quvvatlash emas, balki ovrupolik olim yuzaki va moddatan tushungan ilmni islom donishmandlari inson kamolotini, balog‘atini ancha yuqori, ilohiy qonuniyatlar bilan bog‘lab tushuntirib ketishganiga ishora qilmoqda. Mana shu nuqtada Behbudiy nega “Masnaviy” sharhi va darvinizm haqidagi maqolada Muso afandining Ma’arriydan tarjimasini tilga olib ketganligi oydinlashadi. Ayni o‘sha davrda ovrupo ilm olamida shov-shuvga sabab bo‘lgan, ya’ni “urf” bo‘lgan mavzu darvinizm ta’limoti tatar ilm ommasini ham o‘ziga jalb qilgandi. Hattoki Ma’arriy asarlarini ham sotsial darvinizm nuqtayi nazaridan tahlil qilishga harakatlar boshlangan bo‘lib, buni Rizouddin Faxriddinning Ma’arriy haqida yozganlarida ham ko‘rish mumkin edi. Ma’arriy ijodini tadqiq qilishda R. Faxriddin XX asr boshlarida tatar adabiyotshunosligida shakllangan psixologik va madaniy-tarixiy maktabning metodologik prinsiplaridan, shuningdek, biografik metoddan foydalanadi. Bundan tashqari, u arab shoiri asarlarini sotsial darvinizm pozitsiyasidan tahlil qilishga harakat qiladi. Olimning ta’kidlashicha, Ma’arriy hayvonot va insoniyat jamiyatida shafqatsiz yashab qolish uchun kurash (“tanozig‘i baqo”) mavjudligi haqida bog‘liqliklar keltiradi va shu bilan Darvin ta’limotiga o‘xshash, lekin diniy ong nuqtayi nazaridan kufr bo‘lgan evolyutsiya nazariyasi haqidagi, ya’ni yerdagi barcha narsalar Allohning irodasi emas, balki tabiiy tanlanish natijasi ekanligi haqidagi fikrlarni bayon etadi(Xaydarov, 2004, s. 25)

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida tatar adabiyoti zo‘r o‘zgarishlar kechirdi. Tatar xalqida asrlar davomida o‘zlashib qolgan ijtimoiy va adabiy-axloqiy ideallar o‘zgarib, Sharqdan G‘arbga yuz tutish kuchaydi (Мердәнов, 2001, s. 8). Ijtimoiy va ma’naviy hayot yevropalashtirish jarayoniga qo‘shilib, natijada ikki sivilizatsiyaning noyob madaniy sintezi paydo bo‘ldi. Rizouddin Faxriddin, Muso Begiyev, Olimjon Ibrohimov, Fotih Karimiy kabi diniy islohotchilar,

[1] Tujjor nazarda tutilyapti

ma’rifatparvarlar va yozuvchilar tatar jamiyatini Sharqning eng yaxshi an’analarini saqlab qolishga va G‘arbning ilmiy-texnik va madaniy yutuqlarini qabul qilishga chorlaganlari bejiz emas. Ular o‘rta asr musulmon Uyg‘onish davrining asosiga aylangan gumanistik qarashlar va G‘arbning yangi davrdagi ilmiy kashfiyotlari tatar xalqining ma’naviy tiklanishi va taraqqiyotiga yordam beradi, deb hisoblashgan. XX asr boshlari G‘arb va Sharq madaniyatining sintezi tatar adabiyotini ham tubdan yangiladi va boshqa qardosh xalqlar adabiy jarayoniga sezilarli ta’sir ko`rsatdi (Culpan Zaripova, 9, s. 145). Biroq, Oktabr inqilobidan so‘ng, sovetgacha bo‘lgan tatar adabiyotida aks etgan Sharq-G‘arb sintezining ma’naviy qadriyatlari o‘rnini ko‘p millatli sovet adabiyotining partiyaviylik, sinfiy kurash va proletar internatsionalizmi tamoyillari egallaydi (Xaydarov, 2004, s. 25).

Behbudiy va Abdurashid Ibrohim.

Behbudiyning milliy matbuot taraqqiyotiga qo‘shgan eng katta hissasi “Oyina” jurnali tatar ziyolisi Abdurashid Ibrohimovning “Mir’ot” jurnali uslubida nashr qilingan edi. 1900-yil Peterburgda nashr qilina boshlagan “Mir’ot”(Ko‘zgu) jurnalining 1-16-sonlari Peterburgda, 17-22-sonlari Qozonda chiqadi. A.Benningsen jurnalni “Panislomist va o`ta islohotchilik ta’siriga berilgan siyosiy va adabiy jurnal” deb ta’riflaydi. “Mir’ot o‘rtacha tahsil ko‘rgan ziyoli tushuna oladigan tilda yozilgan, Rusiya musulmonlarini madaniyat, g‘arblashma, yangilanish masalalari bilan birga siyosiy masalalardan ham bahs qilib mutaassiblik va eskilikka qarshi urush ochdi” (Akpinar, Ag‘ca.I, s. 34). Xuddi shu kabi ta’riflar “Oyina” faoliyatiga ham mos kelar edi. Behbudiy 1913 yil 20 avgustda tashkil qilgan “Oyina” jurnaliga muharrirning eng qizg‘in ijod pallasi aks etib turgan ko‘zgu sifatida qarashimiz mumkin. “Turkiy va forsiy o‘rta shevada” chiqqan ilk jurnal “Oyina” xalq orasida ancha mashhur bo‘lgan (Qosimov, 1994, s. 14). Birgina Turkistonda emas, “dunyo musulmonlari orasida yaxshigina shuhrat va e’tibor” (Muin, 2010, s. 31) qozongan “Oyina” millat uchun “yasalgan” edi: “...majalla bizniki emas, millatnikidur”, deb ta’kidlagan Behbudiyning o‘zi (Behbudiy, 2006, s. 155). Haqiqatan ham, “Turkistonga xizmati buyuk” deb e’tirof etilgan “Oyina” bu yo‘lda og‘ishmay ijod qildi, “o‘lka xalqlarining fikriy uyg‘onishiga katta hissa qo‘shdi” (Do‘stqoraev, 2009, s. 191). Jurnalning yuzaga kelishida Behbudiyni ruhlantirgan omil dastlabki tatar jurnali “Mir’ot”(“Oyina”) bo‘ldi, deyish mumkin. U jurnalni “Mir’ot” – “Ko‘zgu” – “Zerkalo” – “Oyina” deb to‘rt tilda nomladi va u forscha nomi bilan shuhrat topdi. Albatta, Behbudiy o‘zi chop ettirgan “Samarqand” gazetasi hamda “Oyina” jurnalinining har bir sahifasi turkiy maslakdoshlarining matbuot ishlarini o‘rganib to‘plangan katta tajribaning mahsuli edi.

Behbudiy va Abdurashid Ibrohimov faoliyatlarini tutashtiruvchi nuqtalardan yana biri bu “Ittifoqi muslimin” (ya’ni Konstitutsiyali xalq partiyasi) tashkilotidir. Ushbu partiyani tuzish g‘oyasi 1905-yil bo‘lib o‘tgan Musulmonlarning Birinchi syezdida o‘rtaga qo‘yilgan. Turkistondan Said Nosir Mirjalilov va Behbudiy ham ushbu firqaga a’zo bo‘lishgan. Firqa “Rusiyaning barcha maslakdosh musulmonlarini yagona siyosiy faoliyatga birlshtirish” (Ahmedov, 2018 I, s. 127)ni maqsad qilgan edi. Behbudiy firqaning 1-va 2-qurultoyida ishtirok eta olmagan. Firqaning birinchi majlisi 1906-yil noyabrda bo‘lib o‘tadi. Majlisdan bir necha kun oldin14-noyabrda Behbudiyga firqa rahbar va tashkilotchilaridan bo‘lgan Abdurashid Ibrohimovdan da’vat maktubi kelgan. 28-noyabrda Behbudiy ushbu maktubga javob yo‘llagan va unda qurultoyda ishtirok eta olmaslik uzrini va keyingi majlislar uchun biroz oldinroq xabar berishlarini so‘raydi. Maktub mazmunidan Behbudiy ushbu firqaning Samarqand bo‘limini boshqarish va a’zolar jalb qilishga mas’ul ekani ko‘rinadi. Behbudiy maktubida “a’zo qayd etar-etmas ishdan polis xabar olg‘onin”i va harbiy gubernator qabuliga kirib ushbu firqa maqsad maslagi xususida qisqacha bayonnoma topshirgani xabarini beradi. Behbudiy gubernatorning

“iona jam etmakdin man” qilganligi haqida ham yozib, bu ishni boshqacha ko‘rinishda ya’ni “Ittifoqi muslimin” maromnomasini nashr ettirib, 50 tiyin qiymatida har bir a’zoga berilishi “haqiqatda a’zo qayd etmak, iona jam’ etmak o‘lsa-da, suvratda kitob sotmoq o‘ldig‘indan ish bir qadar qulay o‘lajaq”ini taklif qiladi. Ushbu maktubning to‘liq matni va unga javob “Ulfat” gazetasining 1906-yil 11-dekabr sonida e’lon qilingan. Abdurashid Ibrohimov o‘z navbatida Behbudiy bildirgan takliflarni “munosib hakimona bir fikr” deb baholadi va tez vaqtda ittifoq maromnomasini “totor, qofqoz, o‘zbek, qirg‘iz shevalarinda ta’b etdirub” nashr qilinishini yozdi. Va aynan ushbu javob maktubida Umumrusiya musulmonlari uchun bir “Nashri maorif jamiyati” ta’sis etish fikri borligi va ushbu sana Peterburg‘da bo‘lgan majlisda “Taraqqiy va maorif shirkati” ta’sis etilishiga kelishib olingani haqida ham ma’lumot berib ketgan. Albatta biz bu yerda “Ittifoqi muslimin” faoliyati haqida batafsil to‘xtalmoqchi emasmiz, ammo shunisi ayonki, ushbu partiya Davlat Dumasida o‘z ovoziga ega bo‘la olmagan bo‘lsa-da, Behbudiyning keyingi siyosiy faoliyati, jumladan, “Ittihodi islom” tashkiloti bilan bog‘liq jarayonlar, Abdurashid qozi va ko‘plab tatar qardoshlar bilan jipslikni ta’minlashda, shuningdek, Behbudiy siyosiy publitsistikasining o‘tli maqolalar bilan boyishida ilhom manbayi bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Rizouddin Faxriddin, Muso Begi, Abdurashid qozi bilan bo‘lgan munosabatlarining bir jihatigagina to‘xtalib o‘tdik. Unda Behbudiyning keng dunyoqarashi, diplomatik salohiyati, zamon bilan hamnafas qadam tashlaganligi yana bir karra o‘z isbotini topdi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy qardosh hammaslaklari bilan har qanday mavzuda bahsga kirisha olgan, har qanday sohada aloqalar o‘rnata olgan. Tatar adabiyotiga ta’siri kuchli bo‘lgan, tatar matbuotida ko‘p munosabatlarga sabab bo‘lgan Abul Alo Al Maarriy ijodini Behbudiy o‘zining muftiy maslakdoshlari ishini tahlil qila oladigan darajada chuqur bilgan, munosabat bildirgan. Yoki Yevropa ilm-fanida yangilik deb qaralgan “Evolyutsion nazariya” haqida ham Behbudiy o‘z qarashlarini bildirib, ushbu nazariyaning Sharq ilm-ma’rifatidagi ildizlariga, asl talqinlariga to‘xtalib o‘tgan. Bu haqda tatar matbuotida chiqishlar qilgan. Bu jihatlar Behbudiy nafaqat, Turkiston matbuotida, balki tatar matbuotida ham faol bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Idil-ural tatarlari yangilik harakatida kechgan ijtimoiy-siyosiy masalalarda ham Behbudiy Turkiston vakili sifatida ishtirok etgan. “Ittifoqi muslimin”, “Ittihodi islom” firqalari, “Idorayi ruhoniya va islomiya” loyihasi kabi masalalardagi munosabatini turli syezd va matbuotdagi chiqishlarida ifoda etgan.

Behbudiy Turkiston taraqqiyoti, millatdoshlari ertasi uchun butun umri davomida bor kuch-g‘ayratini sarf etdi. Yuqoridagi tahlillar uning katta faoliyatining bir qirrasini ochib berishga xizmat qiladi. Albatta, Behbudiyning turkiy dunyo oydinlari bilan aloqalari, munosabatlari katta mavzu bo‘lib, hali ko‘plab o‘rganilishi kerak bo‘lgan jihatlari bor. Behbudiyning birgina qozon tatarlari bilan emas, balki turk, afg‘on, ozarbayjon, misr, boshqird taraqqiyparvarlari bilan aloqalarini izchil o‘rganish, uning tashqi davriy matbuotdagi maqolalarini jamlash, tahlil qilish behbudiyshunosligimizga yangi ma’lumotlar, yangicha qarashlar berishi shubhasiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

Abdirashidov, Z. (2024). *Dilde, fikirde, ışte birlik Türkistan ceditçiliği yazıları*. Anqara: Soncag

Ahmad, S. (2018). *Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar* II jildlik. Toshkent: Akademnashr.

Ahmad, S. (2024). *Mahmudxo‘ja Behbudiy*. Toshkent: Info Capital group.

Akpinar Y., Ag‘ca, F. *Idil Ural bolgesinde sureli yayinlar 1905-1918*. / cagdas turk edebiyatlari-I. B.34)

Behbudiy, M. (1908d) *“Al luzumiyot” kitobi*. Toshkent: Tujjor:15.

Behbudiy, M. (1908e) *Ta’mini istiqbol.* Toshkent: Shuhrat:9.

Behbudiy, M. (1912). *Muhtaram Muso afandi sharafina.* Orenburg: Sho‘ro:11.

Behbudiy, M.(1908a) *Xotiroti Farg‘ona.* Toshkent: Shuhrat, 5.

Behbudiy, M.(1908b). *Turkiston idorasi.* Orenburg: Sho‘ro, 23.

Is’hoqiy, A.(2005) *Asarlar 15 jild, 6. Publitsistika va adabiy-tanqidiy maqolalar*. Qozon: Tatariston kitob nashriyoti

Qosimov, B. (2002). *Milliy uyg‘onish.* Toshkent: Ma’naviyat

Zaripova, C. Tatar edebiyatinin gelisimi. *Akademik bakis dergisi* 9: 145.

Беҳбудий, М. (2006). *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият

Дўстқораев, Б.(2009) *Ўзбекистон журналистикаси тарихи*. Тошкент: Ўзбекистон.

Қосимов, Б.(1994) *Маслакдошлар*. Тошкент: Шарқ.

Мердәнов, Р.Ф. (2001) *"Шура" журналы(1908-1917): әдәбият мәсьәләләре*. Казан: Рухият.

Муин, Ҳ. (2010) *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият.

Хайдаров, Л. (2004) *Вопросы арабской литературы в татарском литературоведении начала XX века*. (Автореферат диссертатсии на соискание ученой степени кандидата филологических наук). Казан, 26.